

## FUQAROLARNING QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQI: XORIJIY TAJRIBA

**Sherov Quvondiq Polvonnazarovich**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*mustaqil izlanuvchisi*

e-mail: [quvondiq1191@gmail.com](mailto:quvondiq1191@gmail.com)

tel.: 91 430 20 24

**Annotatsiya:** Muallif tomonidan fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi bo'yicha xorijiy tajriba o'rganildi. Natijada, xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyalarida mustahkamlangan fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar tahlil qilinib, yutuq va kamchiliklari o'rganildi. Yetakchi mamlakatlarning fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish borasidagi tajribasi asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** qonun loyihasi, qonunchilik tashabbusi, internet, SMS-xabar, imzo.

Huquq jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy munosabatlarga vositachilik qiladi. U ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning har bir bosqichida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali vositasiga aylanadi. Mamlakatda qabul qilinadigan qonunlar jamiyat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunga ko'ra qonunlar xalqchil va mustahkam bo'lishi muhim sanaladi.

Ko'plab rivojlangan davlatlarning konstitutsiyalarida qonunlarni ishlab chiqishda nafaqat davlat organlari, balki fuqarolarning ham ishtirok etishi aniq belgilab qo'yilgan. Ushbu institut fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi deb nomlanib, fuqarolar tomonidan qonun loyihalarini ishlab chiqib, parlamentga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Huquqshunos olimlar G.N. Chebotarev hamda K.A. Ivanovalar fuqarolik qonunchilik tashabbusini to'g'ridan-to'g'ri demokratiyaning bir shakli [1], deb hisoblaydilar. Darhaqiqat, fuqarolar tomonidan qonun loyihalarining ishlab chiqilishi va parlamentga taqdim qilinishi mamlakatda fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklari yetarli darajada ta'minlanganidan dalolat beradi.

Yevropa mamlakatlarida fuqarolar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega va Venetsiya komissiyasi [2] xulosasiga ko'ra, demokratiyaning bu shakli rivojlanib bormoqda. Fuqarolarning qonunchilik tashabbusi Albaniya,

Andorra, Avstriya, Shveytsariya, Gruziya, Vengriya, Italiya, Latviya, Lixtenshteyn, Litva, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Sloveniya, Ispaniya, Makedoniyada belgilangan. Ushbu mamlakatlarning konstitutsiyalarida saylov huquqiga ega bo'lgan davlat fuqarolarining qonunchilik tashabbusi huquqi kafolatlangan [3].

Masalan, Litvada 50 ming nafar [4], Avstriyada 100 ming nafar [5], Polshada 100 ming nafar [6], Albaniyada 20 ming nafar [7], Gruziyada 30 ming nafar [8], Italiyada 50 ming nafar [9], Vengriyada 50 ming nafar [10] saylov huquqiga ega fuqarolar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'plab mamlakatlarda fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlangan bo'lsada, ushbu huquqdan foydalanishda ishtirokchilar sonining ko'pligi va har xil byurokratik to'siqlarning mavjudligi fuqarolarning ushbu huquqdan deyarli foydalanmasligiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, Ispaniyada qonunchilik tashabbusini amalga oshirish uchun tashabbuskor guruh tomonidan saylov huquqiga ega 500 ming nafar fuqarolarning imzolarini to'plash talab etiladi [11]. Bu esa o'z navbatida imzo toplash uchun vaqtning yetishmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Qonunchilik tashabbusi bilan chiqish uchun eng kam fuqarolar soni Lixtenshteynda belgilangan [12] bo'lib, mamlakat konstitutsiyasiga ko'ra fuqarolarning qonunchilik tashabbusi bilan chiqishlari uchun saylov huquqiga ega 1000 nafar fuqarolarning imzosi yetarli hisoblanadi.

Umuman olganda, qonunchilik tashabbusi bilan chiqish uchun fuqarolarning imzolarini to'plashda imzo varaqalaridan foydalanish mexanizmi ancha eskirgan bo'lib, bugungi kunda internet texnologiyalari taraqqiy etgan zamonda imzo varaqalaridan voz kechish hamda SMS-xabarnoma xizmatidan foydalanish yoki maxsus yaratilgan veb-saytlar orqali ovoz to'plash ancha samara berishi mumkin. Bugungi kunda SMS-xabarnoma xizmatini Rossiya Federatsiyasida saylovlarga nisbatan qo'llashni taklif qilishmoqda. Unga ko'ra, nomzod ko'rsatilgan saylov okrugi bo'yicha faol saylov huquqiga ega bo'lgan shaxs o'z nomiga ro'yxatdan o'tgan mobil telefonidan u yoki bu nomzodning tartib raqami ko'rsatilgan SMS-xabarni yagona interaktiv xizmat raqamiga yuboradi. Yagona interaktiv xizmat raqami aloqa tarmog'i operatori tomonidan taqdim etiladi va Rossiya Federatsiyasi ta'xis subyektining saylov komissiyasi tomonidan saylov ishtirokchilariga oldindan xabar qilinadi. Nomzodlarning tartib raqamlari Rossiya Federatsiyasi ta'xis subyektining saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalari, saylov birlashmalari, deputatlikka nomzodlar va saylangan lavozimlar vakillari ishtirokida qur'a tashlash yo'li bilan belgilanadi.

Saylovchi tomonidan deputatlikka nomzod ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlagan holda uzatilgan ma'lumotlar aloqa tarmog'i operatori tomonidan ro'yxatga olinadi va darhol tegishli saylov komissiyasiga va saylovda deputatlikka nomzodlar ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash tartibini nazorat qiluvchi jamoat tashkilotlariga uzatiladi. Deputatlikka nomzod ko'rsatishni qo'llab-quvvatlagan saylovchiga SMS-xabar orqali aloqa tarmog'i operatoridan u tanlagan qo'llab-quvvatlash varianti hisobga olinganligi, shuningdek, saylovchining SMS-xabarini olgan sana va vaqt ko'rsatilganligi to'g'risidagi tasdiqnoma yuboriladi. Saylovchi tomonidan deputatlikka nomzod ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlagan holda yuborilgan bitta SMS-xabar hisobga olinishi va ro'yxatga olinishi kerak. Quyidagi hollarda SMS-xabarlar hisobga olinmaydi:

Internet umumiy axborot telekommunikatsiya tarmog'idan yuborilgan SMS-xabarlar;

Rossiya Federatsiyasining boshqa subyektlari va xorijiy aloqa tarmog'i operatorlaridan yuborilgan SMS-xabarlar;

tarmoqda bir xil IMEI (Xalqaro uyali telefon identifikatori) bilan avtorizatsiya qilingan telefon apparati orqali turli SIM-kartalardan yuborilgan SMS-xabarlar [13].

Qonunchilik tashabbusini amalga oshirishda Finlandiya tajribasi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Finlandiya Parlamenti 2012-yil 1-martdan boshlab fuqarolarning qog'ozda yoki internet orqali kamida 50 mingta imzolarini to'plagan qonun loyihalarini 6 oy ichida ko'rib chiqishi shart qilib qo'yilgan. Finlandiyada fuqarolar tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini qog'ozda chiqarilib, fuqarolarga yetkaziladi, shu bilan birga [www.kansalaisaloite.fi/fi](http://www.kansalaisaloite.fi/fi) platformasiga joylashtiriladi [14].

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning qonunchilik tashabbusi instituti nisbatan yangi bo'lib, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar qonunchilik tashabbusiga egaligi belgilandi [15]. Biroq, fuqarolarning ushbu huquqdan foydalanish mexanizmi ishlab chiqilmagan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olib, O'zbekistonda mazkur institutni rivojlantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

"Fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish tartibi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish va ushbu qonunda qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish mexanizmini aniq belgilash;

Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portalini takomillashtirish va fuqarolarning tashabbuskor guruhlarini tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihalarini joylashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish;

Fuqarolarning qonunchilik tashabbusini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan imzolar yig'ish ishlarini to'liq elektronlashtirish, ya'ni SMS-xabarnoma tizimidan foydalanishni yo'lga qo'yish.

Yuqoridagilarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda fuqarolarning qonunchilik tashabbusi institutini rivojlantirish hamda jamoatchilikni qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga keng jalb qilishga erishiladi. Ushbu islohotlar xalqchil qonunlar yaralishiga xizmat qilishi shubxasiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Антонова О. А. Законодательная инициатива граждан как форма участия в управлении делами общества и государства // Вестник Прикамского социального института. 2018. № 2 (80). С. 7.

2. Rapport sur l'initiative legislative [Электронный ресурс]. Adopté par la Commission de Venise lors de sa 77ème Session plénière (Venise, 12–13 décembre 2008) / La Commission européenne pour la démocratie par le droit (Commission de Venise) // Conseil de l'Europe. Commission de Venise: [сайт]. 2008. URL: [http://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-AD\(2008\)035-f](http://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-AD(2008)035-f) (дата обращения: 20.03.2018).

3. Антонова О. А. Законодательная инициатива граждан как форма участия в управлении делами общества и государства // Вестник Прикамского социального института. 2018. № 2 (80). С. 9.

4. Конституция Литовской Республики. [https://www.lrs.lt/home/Konstitucija/Konstitucija\\_RU.htm](https://www.lrs.lt/home/Konstitucija/Konstitucija_RU.htm)

5. Конституция Австрийской Республики. <https://worldconstitutions.ru/?p=160>

6. Конституция Республики Польши. <https://legalns.com/компетентные-юристы/правовая-библиотека/конституции-стран-мира/конституция-польши>

7. Конституция Албании. <https://www.wipo.int/wipolex/ru/text/224106>

8. Конституция Грузии. <https://legalns.com/download/books/cons/georgia.pdf>

9. Конституция Италии.  
<https://legalns.com/download/books/cons/italy.pdf>
10. Конституция Венгрии.  
<https://legalns.com/download/books/cons/hungary.pdf>
11. Конституция Испании.  
<https://legalns.com/download/books/cons/spain.pdf>
12. Конституция Лихтенштейна.  
<https://legalns.com/компетентные-юристы/правовая-библиотека/конституции-стран-мира/конституция-лихтенштейна>
13. Дворников Д. В., Красинский В. В., Пучнин А. С. Концепция электронного опроса избирателей при сборе подписей в поддержку выдвижения кандидатов в депутаты (на выборные должности) (sms-выдвижение) // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2010. № 9 (89). С. 250–255.
14. Kansalaisaloitteella voi vaikuttaa lainsäädäntöön.  
<https://www.kansalaisaloite.fi/fi>
15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://old.lex.uz/docs/-6445145>